

**FRAZEMALARNI TADQIQ QILISHDA I.I. CHERNISHEVA TASNIFI
(NEMISCHA MISOLLAR ASOSIDA)**

Azamov Omadjon Burxonovich

*Andijon davlat chet tillari instituti Nemis tili nazariyasi
va amaliyoti kafedrasini mudiri, f.f.f.d. dotsent*

***Annotatsiya:** mazkur maqolada dunyo frazeologiya ilmining taraqqiy ertishiga katta xissa qo'shga rus tilshunos olimasi I.I. Chernishevaning frazeologik tasnif metodi borasida so'z ketadi.*

***Kalit so'zlar:** frazema, ma'no ko'lam, semantika, komponent*

**I.I. CHERNYSHEV'S CLASSIFICATION IN THE STUDY OF PHRASES
(BASED ON GERMAN EXAMPLES)**

Azamov Omadjon Burkhonovich

*Head of the Department of Theory and Practice of the German Language, Andijan
State Institute of Foreign Languages, Ph.D., Associate Professor*

***Annotation:** This article discusses the phraseological classification method of the Russian linguist I.I. Chernysheva, who made a significant contribution to the development of world phraseology.*

***Keywords:** phrase, scope of meaning, semantics, component*

O'tgan asrning yetmishinchi yillariga kelib dunyo miqyosida turg'un so'z birikmalarini fundamental o'rganishga kirishildi. Ushbu o'rinda sobiq ittifoq germanistik olimlari N.N. Amasova, A.V. Kunin, I.I. Chernishevalarning monografik tadqiqotlarini alohida ta'kidlash lozim². I.I. Chernisheva nemis tili frazeologik dunyosini ilk marotaba ilmiy tasniflab berdi. Turg'un so'z birikmalarini ham grammatik, ham semantik, hamda stilistik xususiyatlarini inobatga olgan holda kompleks kriteriylar asosida:

- Grammatik strukturasi ko'ra: so'z birikmalari va gap strukturasiidagi birliklar
- Shakllanish uslubiga ko'ra:
- Turg'un so'z birikmasini tashkil etuvchi komponentlarning ma'nosidagi o'zgarish

borligi yoki yo'qligiga hamda ularning struktur va ma'no ko'lamidagi o'zaro ta'sir natijasi asosida tadqiq qildi³.

I.I. Chernisheva taklif qilgan kriteriylarning birinchisi turg'un so'z birikmalarini so'zdan farqlash imkonini beradi, ya'ni frazeologizm bu so'z birikmasi yoki gap strukturasi ega bo'lgan til birligidir.

² N.N. Amasova. "Основы английской фразеологии"; издательства АТУ, 1963. 207 с.; Кунин А.К. "Английская фразеология". – М., 1970. 342 с.; Чернышева И.И. Фразеология современного немецкого языка". – М., 1970. 200 с.

³ Чернышева И.И. Фразеология современного немецкого языка. "Высшая школа". – Москва, 1970. –С. 28.

Ikkinchi taklif etilgan kriteriy orqali frazeologizmlarni shakllanish xususiyatini ko'rishimiz mumkin. Masalan,

a). Birgina bog'lanish orqali shakllangan iboralar:

- *blinder Passagier*
- *ins Wasser fallen*
- *mit Haut und Haar*
- *viele Köche verderben den Brei*

b). Model orqali shakllangan frazeologizmlar:

- *Aufnahme finden*
- *Eile haben*
- *Eine Seele von einem Menschen*

v). Qatorlashib shakllangan iboralar:

- *blinder Hass*
- *blinder Zorn*
- *blinded Fenster*
- *blinde Tasche* kabilar.

Uchinchi kriteriy orqali professor I.I. Chernisheva turg'un so'z birikmalarni bir biri bilan aloqasini uch asosiy faktor orqali ajratib ko'rsatdi:

5. Yakka yoki barcha komponentlarning semantik o'zgarishlari asosida yasalgan birliklar: *ins Wasser fallen*- barbod bo'lmoq. Bu yerda "*Wasser*" so'zi o'zining leksik ma'nosidan uzoqlashgan holda yangi ma'no kasb etyapti. Shunday holatni "*blinder Passagier*" (so'zma-so'z: ko'zi ojiz yo'lovchi) "chiptasiz yo'lovchi" iborasida ham kuzatish mumkin. Mazkur holatda "*blind*"-"ko'zi ojiz" so'zi "yo'lovchi" so'zi bilan birga yangi ma'noga ega bo'lmoqda.

6. O'z leksik ma'nosi asosida shakllangan turg'un so'z birikmalar:

"*der Nahe Osten*"- „yaqin sharq“

7. Turg'un hamda o'zgaruvchan komponentlarga ega bo'lgan shablon turg'un birikmalar: „*Aufnahme finden*“, „*Eile haben*“, „*eine Seele von einem Menschen*“.

Yuqoridagi kompleks kriteriyalar asosida nemis tilida to'rt tipdagi turg'un so'z birikmalarni ajratib olishimiz mumkin:

15. Semantik nuqtai nazardan komponentlari to'liq yoki qisman o'zgarish birgina bog'lanish orqali shakllangan iboralar;

16. Birgina komponentning semantik ma'nosini o'zgarishi orqali bir qator turg'un birliklarning shakllanishi;

17. Modellar, ya'ni analitik va tipik konstruktsiyalar orqali shakllangan iboralar;

18. O'z leksik ma'nosi asosida shakllangan turg'un so'z birikmalar.

I.I. Chernisheva tomonidan taklif qilingan tasnifning uchinchi hamda to'rtinchi guruhlarini bir qator tilshunoslar tomonidan tanqid qilinib, ushbu turg'un birliklar tilning frazeologik tadqiqot ob'ekti bo'lmasligini ta'kidlab o'tdilar.

Nemis tilining turg'un frazalari rus olimi A.D.Rayxshtayn tomonidan monografik tadqiqot ko'lamida chuqur o'rganib chiqilgan. Uning 1971 yil Moskvada chop etilgan

“Немецкие устойчивые фразы” qo‘llanmasida nemis tilidagi qator turg‘un frazalar semantik, struktur, funksional nuqtai nazardan atroflicha talqin qilingan. Muallifning qo‘llanma so‘z boshisida yozishicha “Darhaqiqat, nemis tilida ko‘p sonli ifodalar borki, ularda standart transformatsiyalanish yetishmaydi, yoki ular shaklan umuman o‘zgarishga uchramaydi. Bular turg‘un frazalar bo‘lib, fraza o‘zgarmasdan tilda tayyor xolda paydo ishlatilaveradi.

wie man´s nimmt- это так сказать (aytish mumkinki)

so was lebt nicht- ну, надо же! Быть не может! (Naxotki! Bo‘lishi mumkin emas!)

da beißt die Maus keinen Faden ab!-это уж точно, тут нечего не изменишь (endi buning iloji yo‘q)

so schnell schießen die Preußen nicht- так быстро дела не делаются (ish bunaqa bo‘lmaydi)

Befehl ist Befehl- приказ есть приказ”⁴(gap-gap!)

Bu kabi frazemalarda grammatik struktura hamda komponentlar mutlaq turg‘un.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Чернышева И.И. Фразеология современного немецкого языка. “Высшая школа”. – Москва, 1970.
2. Райхштайн А.Д. Немецкие устойчивые фразы. – Москва, просвещение, 1971.
3. Н.Н. Амасова. “Основы английской фразеология”; издательства АТУ, 1963.
4. Кунин А.К. “Английская фразеология”. – М., 1970.

⁴ Райхштайн А.Д. Немецкие устойчивые фразы. – Москва, просвещение, 1971. – С.3-4.